

AGRAR SOHADA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi,

UZMUJF, assistent

E-mail: nodira070495@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada agrar tarmoqlarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar haqida so'z boradi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Tadbirkorlik har qanday xo'jalik sub'ekti uchun bozor munosabatlariga o'tish noaniqlik va tavakkalchilikning oshib borishi bilan bog'liq. Korxonalar va alohida tadbirkorlar ichki va tashqi bozorlarda mustaqil shartnoma tuzish huquqini qo'lga kiritganlaridan keyin, birinchi marta, muttasil o'zgarib turadigan bozor konyukturasi sharoitida xo'jalik faoliyatining muqobil yo'nalishlarini tanlash muammosiga duch keladilar.

Kalit so'zlar: Agroiqtisodiyot, agrarbiznes, struktura, iqtisodiyot, platforma.

FACTORS AFFECTING THE ORGANIZATION OF BUSINESS ACTIVITY IN THE AGRICULTURAL SYSTEM

Abstract: This article deals with the factors affecting the organization of entrepreneurial activity in agrarian industries. Today, the organization of entrepreneurship in agriculture is becoming an urgent issue. Entrepreneurship, for any economic entity, the transition to market relations is associated with increased uncertainty and risk. After gaining the right to conclude independent contracts in domestic and foreign markets, the enterprise and individual entrepreneurs, for the first time, face the problem of choosing alternative directions of economic activity in the conditions of constantly changing market conjuncture.

Key words: Agricultural economy, agrarian business, structure, economy, platform.

Har qanday tadbirkorlik ma'lum bir hududda: viloyat, shahar yoki qishloq miqyosida olib boriladi. Tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borish uchun ma'lum bir ishchi muhiti bo'lishi kerak. Bunday muhit ayrim hududlar miqyosida jamlanib, o'zida ishbilarmonlik funktsiyalarini amalga oshirishni mujassamlashtirgan. Umumiy holda tadbirkorlik muhiti asosan quyidagi to'rtta omil: ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy omillarning o'zaro bog'liqligi natijasida amalga oshiriladi. Ular ijobiy yoki rag'batlantirish ko'rinishida ham shakillanishi mumkin.

Tadbirkorni ko'proq tadbirkorlik muhitini belgilovchi omillarning o'zaro bog'liqligi qiziqtiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillardan huquqiy omil asosiy bo'lib hisoblanadi. Huquqiy omil-tadbirkorlik faoliyatini yuritish yo'lidagi barcha qonunlar (soliq, yer, mehnat munosabatlari) va yo'riqnomalar majmuasi bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladi, hamda tadbirkorning iqtisodiy jarayondagi boshqa sub'ektlar bilan munosabatini mujassamlashtiradi. Huquqiy bazaning to'liq yoki bir me'yorda yuritilmasligi tadbirkorlik faolligi darajasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amaliyotda tadbiriq qilinayotgan iqtisodiy isloxlarning asosini tashkil qilayotgan bir butun huquqiy baza mavjuddir. Huquqiy omilning tavsifiga "huquqiy madaniyat" tushunchasi ham kiradi. Buning ostida millatning qonunlarga to'liq rioya qilishi, ya'ni insonlarning ongida qonunlar talabini bajarish kerak degan tushunchaning bo'lishi tushuniladi. Agar kerak bo'lgan barcha qonunlar qabul qilinsa-yu, lekin ular amalda ishlamas yoki tadbiriq qilinmasa, bunday jamiyatni qonunlarga bo'ysinuvchan deb bo'lmaydi va buni tadbirkor o'z faoliyatini yuritishda e'tiborga olishi shartdir. Siyosiy omil tadbirkorlik jarayonida bo'layotgan barcha hodisalarga davlatning munosabatini va ularga davlatning ta'sirini belgilab beradi. Davlatning tadbirkor faoliyatiga qay darajada ta'sir ko'rsatishi yoki aralashishi kerakligi ham siyosiy omil tushunchasiga kiradi. Bunday aralashish oldindan belgilanmagan yoki belgilangan bo'lishi mumkin. Umuman olganda, tadbirkorlik faolligi darajasiga davlatning munosabati rag'batlantirish yoki qo'shilishmaslik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy omil boshqalarga nisbatan

o'zining tarkibi jihatidan anchagina murakkab hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tarkibi ko'pgina elementlardan tashkil topadi.

Agar tadbirkor ularni e'tiborga olmasa, kelgusida salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Quydagilar bu omilning asosiy elementlari hisoblanadi; -jamiyatda mafkuraning holati; -milliy urf-odatlar; -millatning madaniy va maishiy odatlari; -atrofdagi kishilarning tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati; -davlatning tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati. Iqtisodiy omil bozordagi raqobatni va narx-navo holatini o'zida aks ettiradi. Narx-navo tizimi, o'z navbatida, narxlarning darajasi, ishlab chiqarish jarayoniga tadbirkor tomonidan jalb qilinayotgan ishlab chiqarish omillari, ishchi kuchi, kredit stavkasi miqdolari hamda soliq va majburiy to'lovlarni o'z ichiga oladi. Bunda bozordagi raqobat shartsharoitlari sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilib chiqiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining kelajagi tadbirkorlik muhiti bilan belgilanadi, u esa jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar sinfi, iqtisodiy aloqalarda bozorning ustivorligi, tadbirkorlik kapitalini mujassamlashtirish sharoitining mavjudligi va kerak bo'lgan resurslarni ishlatish kiradi. Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiy o'sishning qo'shimcha manbai sifatida ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda katta rol o'ynaydi, bandlik mummolarini hal etish, milliy boylikni o'stirish va millatning farovonligi uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy faollik va mustaqillikning muhim shakli bo'lmish tadbirkorlik 121 respublikamizda bandlikning aniq shaklini va yangi ish joylarini barpo etish yo'lida eng rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llab- quvvatlanishi bir necha yillar mobaynida maslahatlar berish, moliyaviy yordam ko'rsatish yoki soliqlar to'lashda tadbirkorlar uchun ma'lum bir imtiyozlar berilishida aks etmoqda. Tadbirkorlik muhiti mamlakatning rivojlanishi asosini tashkil qiladi va ishbilarmon kishilarning faoliyat mazmunini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Husanov R.X. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va agrar iqtisodiyot. «Yangi asr avlodi», -T.: 2004. -B. 213 2.3.
2. Баранчеев, В.П. Управление инновациями [Текст] / В.П. Баранчеев, Н.П. Масленникова, В.П. Мишин. – М.: Юрайт-Издат, 2009. – 711 с.
3. То'uchiyeva N. Elektron Ta'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 40-41.
4. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
5. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 1. – С. 209-210.
6. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – С. 205-208.
7. Норбеков Х., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компании //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 589-592.